



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 210 sahifa,
13-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga matematika darslarida integratsion yondashuvni amalga oshirish	10
<i>Mamadjanova Ma'muraxon Kadirjanovna</i>	
O'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari.....	13
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Inkluziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini aniqlash metodologiyasi	21
<i>D. Sh. Jo'rayeva, J. A. Jovliyev</i>	
Bolalarda leksik-grammatik nutq kamchiliklarini bartaraf etishda kontekstli texnologiyalardan foydalanish	25
<i>Abdullayeva Yoqutjon Qalandar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	30
<i>Abduvaliyeva Sabina Kurbonali qizi</i>	
O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	35
<i>Aripov Shokirjon Olimovich, Raxmatillayeva Sug'diyona Muhammadjon qizi</i>	
Pedagogik intuitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodikalar	39
<i>Axmedov Jaloliddin Oribovich</i>	
The Impact of AI-Generated English Learning Materials Based on Uzbek Rural Life on the Learning Motivation of Rural Students.....	42
<i>Baxramova Malika Muzaffarovna</i>	
Raqamli kutubxonalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyalari va imkoniyatlari	47
<i>Choriyeva Zarina Anvarbek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari ...	50
<i>D. Teshaboyev, M. Sotvoldiyeva</i>	
Oliy ta'limda tblt metodik modeli asosida baholash tizimini takomillashtirish	53
<i>Djurayeva Nargiza Kudratillayevna</i>	
Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik etikaning rivojida xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	59
<i>Dushayeva Nazokat Sharofiddinovna</i>	
Uilyam Shekspir tragediyalarining o'zbek adabiyotidagi o'rni.....	62
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Qizlarning oilaviy kompetensiyasi uchun ijodiy pedagogika: Koreya dizayn ta'limi modelini O'zbekiston kontekstiga moslash.....	65
<i>G'ayratova Mohidil Zafar qizi</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi	69
<i>Maksetova Nurjamal Kuatovna</i>	
Integrativ ta'lim muhitida bo'lajak surdopedagoglarning metodik kompetensiyalarini shakllantirish	72
<i>Malikova Xurshida Ikramovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ko'p uchraydigan tovush talaffuzi kamchiliklari va ularni bartaraf etishda lopedik usullar.....	75
<i>Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi</i>	
Talabalarga an'anaviy xonandalik ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	78
<i>Muxammadova Ozoda Muzrabovna</i>	
Hayotiy sifat tushunchasini psixologik mazmuni.....	82
<i>N. G. Pulatova</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning kompleks yondashuvlari	85
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Abdurashidova Feruza Qaxramonovna</i>	
Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchining ko'p qirrali pedagogik faoliyati va uning nazariy asoslari	89
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Axmedova Aziza Temurovna</i>	



Xo'ja ahmad Yassaviy e'tiqod tarbiyasi haqida.....	93
<i>Norova Sevara Uyg'un qizi</i>	
Matritsa va uning determinanti mavzusini o'qitish orqali bo'lajak iqtisodchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari.....	97
<i>Nuriddinov Jalolxon Tursunboy o'g'li, Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich</i>	
Odam anatomiyasi darslarida interfaol va multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari.....	104
<i>Nurmatov Norqobil Jo'rayevich, Qo'chqorova Moxira Dilmurod qizi, Boxodirova Nilufar Ikrom qizi</i>	
AQSh ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari va bugungi kundagi rivojlanishi.....	110
<i>Orishev Jamshid Bahodirovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy ta'limi tajribalari.....	116
<i>Pardayeva Gulbahor Jalg'ashovna</i>	
Kreativ ta'lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati.....	119
<i>Sariboyev Nurali Abdunazarovich</i>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy pedagogik tizimdagi o'rni.....	122
<i>Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li</i>	
Konstruktiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	126
<i>Sobirova Sarvinoz Quvondiqovna</i>	
Criteria of Scientific Activity Implementation of Physical Culture Education Students.....	133
<i>Sapayev Ruzmat Radjapovich</i>	
O'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	136
<i>Tilovova Qizlarxon Ishpulat qizi</i>	
PIRLS tadqiqotida so'rovnomalarning qamrov doirasida maktab muhiti.....	141
<i>To'qliyeva Matluba Boqiyevna</i>	
Onlayn til o'rganish platformalarining esl o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchi (speaking confidence) ga ta'siri.....	146
<i>Tojiboyeva Shohistaxon, Omonova Nargiza</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlarning ahamiyati.....	151
<i>Toshpo'latova Sevinch O'ral qizi</i>	
Maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samarali uslublari.....	155
<i>Turdiyev Azam Xasanovich</i>	
O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro baholash tizimini tatbiq etish imkoniyatlari.....	158
<i>Turobov Mamarajab Sodiq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	163
<i>Umirzoqova Surayyo Xudoyberdiyevna</i>	
Talabalarda perspektiv tasvir bajarishga oid ko'nikmani shakllantirishda CAD dasturlaridan amaliy foydalanish imkoniyatlari.....	165
<i>Valiyev A'zamjon Nematovich, Toxirov Sardorbek Muzaffar o'g'li</i>	
Duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan usullar va vositalar.....	173
<i>Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari.....	176
<i>Xudoyberdiyeva Dildora Nazarjon qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Duduqlanishga ega bolalar nutqini rivojlantirishda kompleks korreksion ishlar tizimi.....	179
<i>Xusanova Nozimaxon Zuxriddin qizi</i>	
Sirdaryo viloyatida tabiat va mehnat jarayonlarining tasviriy san'at orqali estetik va ekologik ifodasi.....	182
<i>Yorlaqova Malika Ahmad qizi</i>	
The Relevance of Artificial Intelligence in Teaching the English Language.....	186
<i>Yusupova Gulnoza Mirzoyevna</i>	
Umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladigan nutq xususiyatlari.....	189
<i>Zairova Nigora</i>	



Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari	193
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Педагогические технологии совершенствования физических качеств как основы здорового образа жизни	197
<i>Журабаев Абдукарим Маматкулович</i>	
Формирование духовно-нравственной компетентности будущих учителей как педагогическая проблема	200
<i>Зокиржонova Ф. Р., Рихситиллаева Д. Р., Меликузиева Ш. А.</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе	203
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Talaba yoshlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar	205
<i>Xojametov Ajiniyaz Andriyanovich</i>	
Методика формирования познавательных интересов у младших школьников в процессе выполнения творческих заданий на уроках русского языка	207
<i>Юлдашева Тахмина Бону Гайратовна</i>	

ONLAYN TIL O'RGANISH PLATFORMALARINING ESL O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQ ISHONCHI (SPEAKING CONFIDENCE) GA TA'SIRI

Tojiboyeva Shohistaxon

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Falsafa fanlari doktori(PhD)

Omonova Nargiza

Termiz iqtisodiyot va servis univiresiteti Filologiya fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'nalishi

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot onlayn til o'rganish platformalarining ESL o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchiga (speaking confidence) ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Zamonaviy raqamli ta'lim muhiti, mobil ilovalar, videomuloqot vositalari, interaktiv topshiriqlar va sun'iy intellekt asosidagi mashqlar ingliz tilini o'rganishda muhim o'rin egallab, o'quvchilarga auditoriyadan tashqarida ham faol nutqiy mashq qilish imkonini yaratadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu platformalardan foydalanish ESL o'quvchilarining ingliz tilida erkin gapirish, xatodan qo'rqmaslik, muloqotga tezroq kirishish hamda o'z nutqiy imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini oshirishga qanday ta'sir qilishini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotda aralash metodologiya qo'llanilib, tajriba va nazorat guruhlarini asosida pre-test va post-test natijalari, speaking confidence so'rovnomalari, og'zaki nutq namunalari hamda yarim tuzilgan intervyular tahlil qilindi. Natijalar onlayn platformalardan muntazam foydalangan o'quvchilarda og'zaki nutq ishonchi darajasi sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi. Ular ingliz tilida javob berishda kamroq tortinadi, suhbatga faolroq kirishadi, xatolardan kamroq qo'rqadi va kommunikativ tashabbus ko'rsatadi. Ayniqsa, ovoqli topshiriqlar, interaktiv dialoglar, takroriy mashqlar, tezkor fikr-mulohaza hamda past bosimli o'quv muhiti og'zaki nutq ishonchini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida aniqlangan.

Xulosa qilib aytganda, onlayn til o'rganish platformalari ESL o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita bo'lib, ular nafaqat til ko'nikmalarini mustahkamlaydi, balki speaking anxiety ni kamaytiradi, ichki ishonchni oshiradi va faol kommunikativ ishtirokni rag'batlantiradi.

Kalit so'zlar: onlayn til o'rganish platformalari, ESL o'quvchilari, og'zaki nutq ishonchi, speaking confidence, speaking anxiety, interaktiv mashqlar, sun'iy intellekt, kommunikativ faollik, raqamli ta'lim, og'zaki nutq ko'nikmasi.

Abstract: This study examines the impact of online language learning platforms on ESL learners' speaking confidence. In the modern digital learning environment, mobile applications, video communication tools, interactive tasks, and AI-based exercises play a significant role by enabling learners to practice speaking actively beyond the classroom.

The main objective of the study is to determine how the use of these platforms influences learners' ability to speak English fluently, reduces fear of making mistakes, facilitates faster engagement in communication, and enhances confidence in their speaking abilities. A mixed-methods approach was employed, including analysis of pre-test and post-test results, speaking confidence questionnaires, oral performance samples, and semi-structured interviews.

The findings indicate that learners who regularly used online platforms demonstrated a significant increase in speaking confidence. They showed less hesitation, greater participation in conversations, reduced fear of errors, and increased communicative initiative. Key contributing factors included voice-based tasks, interactive dialogues, repeated practice, immediate feedback, and a low-pressure learning environment.

In conclusion, online language learning platforms serve as an effective pedagogical tool for developing ESL learners' speaking confidence. They not only strengthen language skills but also reduce speaking anxiety, enhance self-confidence, and promote active communicative engagement.

Key words: online language learning platforms, ESL learners, speaking confidence, speaking anxiety, interactive tasks, artificial intelligence, communicative activity, digital education, speaking skills.



Аннотация: Данное исследование посвящено изучению влияния онлайн-платформ для изучения языка на уверенность устной речи (speaking confidence) у изучающих английский язык как иностранный (ESL). В условиях современной цифровой образовательной среды мобильные приложения, средства видеокommunikации, интерактивные задания и упражнения на основе искусственного интеллекта играют важную роль, предоставляя учащимся возможность активно практиковать устную речь вне аудитории.

Основная цель исследования заключается в определении того, как использование данных платформ влияет на способность учащихся свободно говорить на английском языке, снижает страх ошибок, ускоряет включение в коммуникацию и повышает уверенность в собственных речевых возможностях. В исследовании применялась смешанная методология: анализировались результаты pre-test и post-test, анкеты speaking confidence, образцы устной речи и полуструктурированные интервью.

Результаты показали, что у учащихся, регулярно использующих онлайн-платформы, уровень уверенности устной речи значительно повысился. Они проявляют меньшую скованность, более активно участвуют в диалоге, меньше боятся ошибок и чаще проявляют коммуникативную инициативу. Особенно значимыми факторами оказались голосовые задания, интерактивные диалоги, повторная практика, оперативная обратная связь и низко стрессовая учебная среда.

Таким образом, онлайн-платформы являются эффективным педагогическим инструментом для развития уверенности устной речи у ESL-учащихся, способствуют снижению speaking anxiety, повышению внутренней уверенности и активизации коммуникативной деятельности.

Ключевые слова: онлайн-платформы для изучения языка, ESL-учащиеся, уверенность устной речи, speaking confidence, speaking anxiety, интерактивные задания, искусственный интеллект, коммуникативная активность, цифровое образование, устная речь.

KIRISH

Bugungi kunda ESL o'quvchilari ingliz tilini faqat auditoriyada emas, balki turli onlayn platformalar (mobil ilovalar, LMS, videodarslar, CMC - chat, forum, videomuloqot) orqali ham faol o'rganmoqda. Bunday muhitning eng muhim afzalligi shundaki, u o'quvchiga ko'proq "amaliy muloqot" imkonini beradi: juftlikdagi vazifalar, yozishma va video/suhbat formatlari orqali tilni real vaziyatga yaqin sharoitda qo'llash kuchayadi.

Tadqiqotlar kompyuter vositasida tashkil etilgan muloqot (computer-mediated communication) L2 og'zaki ko'nikmalar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini, ayniqsa interaktiv topshiriqlar va muntazam mashq bilan birga qo'llanganda natija yanada barqaror bo'lishini ta'kidlaydi ^[1]. Shu sababli, onlayn platformalar nafaqat "bilim" (vocabulary, grammar), balki o'quvchining og'zaki nutqqa kirishish tayyorgarligi va o'zini erkin his qilishiga ham ta'sir qilishi mumkin.

Biroq og'zaki nutqdagi "ishonch" (speaking confidence) faqat ko'nikma darajasi bilan belgilanmaydi: u o'quvchining speaking self-efficacy (o'ziga ishonch), muloqotga tayyorligi (willingness to communicate) hamda xatodan qo'rqish, "salbiy baholanaman" degan xavotir kabi affektiv omillar bilan chambarchas bog'liq ^[2].

Onlayn o'qish jarayonida aynan shu affektiv omillar ikki xil natija berishi mumkin: bir tomondan, kamera ortida o'tirish va "bosim"ning kamayishi ayrim o'quvchilarda gapirishga jur'atni oshiradi; boshqa tomondan esa, texnik nosozliklar, omma oldida chiqish (online presentation) hamda baholanish qo'rquvi speaking anxiety'ni kuchaytirib, ishonchni pasaytirishi ehtimoli bor ^[3].

Shu sababli, ushbu maqolada onlayn til o'rganish platformalaridan foydalanish ESL o'quvchilarining og'zaki nutqdagi ishonchiga qanday ta'sir qilishini (qaysi sharoitda oshirishi yoki pasaytirishi), hamda bu ta'sirni kuchaytiruvchi omillar (muntazamlik, interaktivlik, fikr-mulohaza sifati, xavfsiz psixologik muhit)ni tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi tadqiqotlar aralash metod yondashuvining samaradorligini ko'rsatib, ayniqsa raqamli ta'lim muhitida ESL o'quvchilarning nutqiy rivojlanishini tahlil qilishda uning ahamiyatini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv miqdoriy va sifat tahlilini birlashtirib, tadqiqot muammosini chuqurroq yoritish imkonini beradi. Miqdoriy bosqichda o'quvchilarning speaking confidence darajasidagi o'zgarishlar aniqlansa, sifat bosqichida esa ushbu o'zgarishlarning sabablari, o'quvchilarning subyektiv tajribasi hamda onlayn platformalarda ishlash jarayonida yuzaga kelgan psixologik omillar tahlil qilinadi.

Tadqiqotlarda, ayniqsa, raqamli muloqot faoliyatlari va sun'iy intellekt vositalari asosidagi speaking mashg'ulotlarida pre-test va post-test natijalari hamda intervyularni birgalikda qo'llash o'quvchilarning nutqiy faolligi va muloqotga tayyorligidagi o'zgarishlarni aniqroq ko'rsatishi qayd etilgan ^[4].

Shuningdek, ilmiy manbalarda onlayn platformalarning o'quvchilarning og'zaki nutq ishonchiga ta'sirini baholashda turli metodlardan foydalanish muhimligi ta'kidlanadi. Jumladan, og'zaki nutq namunalari orqali

o'quvchilarning erkin gapirish darajasi, tortinchoqlik holati, javob berish tezligi va muloqotga kirishish faolligi tahlil qilinadi. Bundan tashqari, yarim tuzilgan intervyular orqali o'quvchilarning onlayn platformalarga nisbatan ishonch, qulaylik, motivatsiya va xatodan qo'rqmaslik hissi kabi subyektiv qarashlari o'rganiladi.

Olingan miqdoriy ma'lumotlar taqqoslash va foizli tahlil asosida, sifat ma'lumotlari esa tematik tahlil asosida sharhlanadi. Shu tariqa, onlayn platformalarning ESL o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchini oshirishdagi real pedagogik ta'siri kompleks ravishda ochib beriladi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, onlayn til o'rganish platformalaridan muntazam foydalanilgan tajriba guruhida og'zaki nutq ishonchi nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori darajada shakllandi. Tajriba guruhidagi o'quvchilar ingliz tilida javob berishda kamroq tortinishi, suhbatga tezroq kirishishi, xatodan qo'rqish darajasining pasayishi va mustaqil ravishda gapirishga bo'lgan tayyorligining ortishi bilan ajralib turdi. Ayniqsa ovoqli topshiriqlar, sun'iy intellekt asosidagi suhbat mashqlari, takroriy audio javob yuborish va darhol fikr bildirish imkoniyati speaking confidence ni kuchaytiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ldi. Bunday holat 12 haftalik AI chatbot amaliyotiga bag'ishlangan tadqiqotda ham kuzatilgan bo'lib, unda eksperimental guruh an'anaviy ta'lim olgan guruhdan barcha asosiy speaking ko'rsatkichlari bo'yicha ustun natija ko'rsatgani, shuningdek xavotir kamaygani qayd etilgan [6].

Shuningdek, olingan ma'lumotlar onlayn muhitda kontekstli va interaktiv mashqlar tashkil etilganda o'quvchilarning nafaqat til birliklarini qo'llash sifati, balki nutqiy erkinligi ham mustahkamlanishini ko'rsatdi. Virtual va raqamli platformalarda rolli muloqot, vaziyatli topshiriqlar hamda takroriy mashq qilish imkoniyati o'quvchilarda ichki tayyorgarlik hissinı kuchaytirdi. Natijada ular dars jarayonida ko'proq tashabbus ko'rsatdi, javob berishda uzoq ikkilanish kamaydi va nutq jarayonida o'ziga ishonch oshdi. VR asosidagi speaking tajribasini o'rgangan tadqiqotda ham pretest va posttest orasida sezilarli ijobiy o'zgarish aniqlangan hamda ishtirokchilar bunday muhitni qulay va rag'batlantiruvchi deb baholagan [7].

1-jadval: Onlayn platformalar qo'llangan va qo'llanmagan guruhlarda speaking confidence ko'rsatkichlarining o'zgarishi

Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi boshlang'ich	Tajriba guruhi yakuniy	Nazorat guruhi boshlang'ich	Nazorat guruhi yakuniy
Ingliz tilida erkin javob berish	2.7	4.1	2.8	3.2
Xatodan qo'rqmasdan gapirish	2.5	4.0	2.6	3.1
Darsda ixtiyoriy nutq faolligi	2.9	4.3	2.9	3.3
Juftlik va guruh suhbatida ishtirok	3.0	4.4	3.1	3.5
Umumiy speaking confidence ko'rsatkichi	2.8	4.2	2.9	3.3

Jadval ma'lumotlari tajriba guruhida barcha ko'rsatkichlar bo'yicha o'sish yuqoriroq bo'lganini ko'rsatadi. Eng katta ijobiy siljish erkin javob berish, xatodan qo'rqmasdan gapirish va ixtiyoriy nutq faolligida kuzatildi. Bu esa onlayn platformalar o'quvchiga xavfsizroq mashq muhiti yaratishi, takroriy urinib ko'rish imkonini berishi va baholanish bosimini nisbatan kamaytirishi bilan izohlanadi. Nazorat guruhida ham ma'lum o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, u tajriba guruhidagi o'zgarish darajasiga yetmagan. Umuman olganda, natijalar onlayn til o'rganish platformalari ESL o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchini oshirishda samarali vosita ekanini ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olingan natijalar onlayn til o'rganish platformalari ESL o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ayniqsa platformalarda takroriy mashq qilish, individual sur'atda ishlash, xatoni darhol ko'rish va qayta javob berish imkoniyati mavjudligi o'quvchining psixologik bosimini pasaytiradi. Shu sababli speaking confidence faqat lingvistik bilim ortishi bilan emas, balki xavfsiz va nazorat qilinadigan nutqiy muhit shakllanishi bilan ham bog'liq ekanı ko'rinadi. Avtomatik nutqni tanish tizimiga asoslangan saytlar bilan ishlagan o'quvchilarnı o'rganish natijalari ham aynan shu yo'nalishni ko'rsatgan bo'lib unda eksperimental guruhda speaking anxiety kamaygani va language enjoyment kuchaygani qayd etilgan. Bu holat onlayn platforma og'zaki javobni baholashdan oldin mashq maydoni sifatida xizmat qilganda o'quvchi o'zini erkinroq his qilishini anglatadi [8].

Muhokama natijalari shuni ham ko'rsatadiki speaking confidence ko'pincha bevosita emas, balki oraliq affektiv omillar orqali shakllanadi. Ya'ni o'quvchi platformadan foydalangan sari unda ichki xotirjamlik, nutqqa nisbatan ijobiy kayfiyat va kommunikativ tayyorgarlik kuchayadi, aksincha ruhiy charchoq va zo'riqish kamayadi.



Informal digital learning of English bilan willingness to communicate o'rtasidagi munosabatni o'rgangan tadqiqotda ham aynan foreign language peace of mind va learning burnout ushbu bog'liqlikda vositachi omillar sifatida ko'rilgan. Demak onlayn platformalarning samarasi faqat texnik vosita ekanida emas, balki u o'quvchida hissiy barqarorlik yaratishida ham namoyon bo'ladi ^[9].

Bundan tashqari bizning natijalar onlayn platformalarda speaking confidence oshishi kommunikativ tashabbus bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Agar platforma o'quvchini faqat tinglovchi emas, balki faol gapiruvchi sifatida jalb etsa, og'zaki nutq ishonchi yanada tezroq mustahkamlanadi. Koreya va Shvetsiya o'quvchilari misolida olib borilgan qiyosiy tadqiqotda IDLE chastotasi har ikki guruhda ham L2 willingness to communicate ni bashorat qilgani, koreys o'quvchilarida esa receptive va productive faoliyatlar alohida kuchli omil bo'lgani aniqlangan. Bu esa platforma ichidagi faol qatnashuv, kontent yaratish, ovozli yoki yozma javob qaytarish kabi jarayonlar speaking confidence ni mustahkamlovchi muhim mexanizm ekanini ko'rsatadi ^[10].

Umuman olganda, muhokama qilingan natijalar asosida aytish mumkinki, onlayn til o'rganish platformalari speaking confidence ni uch asosiy yo'l orqali rivojlantiradi. Birinchisi, ular xatodan qo'rqishni kamaytiradigan moslashuvchan mashq muhiti yaratadi. Ikkinchisi, ular ijobiy hissiy fonni kuchaytirib o'quvchining ichki xotirjamligini oshiradi. Uchinchisi esa, ular real muloqotga yaqin faoliyatlar orqali kommunikativ tashabbus va nutqiy faollikni rag'batlantiradi. Shu jihatdan bunday platformalarni ESL darslarida qo'shimcha vosita emas, balki og'zaki nutq ishonchini shakllantiruvchi strategik pedagogik mexanizm sifatida baholash mumkin.

2-jadval: Onlayn platformalarning speaking confidence ga ta'sir mexanizmlarining muhokamaviy talqini

Asosiy omil	Muhokamadagi talqin	Speaking confidence ga kutiladigan ta'sir
Takroriy mashq imkoniyati	O'quvchi bir necha bor javob berib o'z xatosini tuzatadi	Nutqdan qo'rqish kamayadi va javob berish dadillashadi
Darhol fikr bildirish	Platforma xato va yutuqni tez ko'rsatadi	O'quvchi o'z nutqiy holatini aniqroq anglaydi
Past bosimli muhit	Auditoriya bosimi va bevosita kulgi yoki tanqid xavfi kamayadi	Psixologik erkinlik ortadi
Ijobiy emotsional fon	Xotirjamlik va nutqga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi	Ichki ishonch mustahkamlanadi
Faol kommunikativ ishtirok	O'quvchi kontent iste'molchisi emas, balki faol gapiruvchiga aylanadi	Muloqotni boshlash va davom ettirish osonlashadi
Moslashuvchan o'rganish sur'ati	Har bir o'quvchi o'z tezligida ishlaydi	O'z kuchiga ishonch kuchayadi

Jadvaldagi tahlil shuni ko'rsatadiki, speaking confidence ning ortishi bitta omilga emas, balki bir necha pedagogik va psixologik mexanizmlarning birgalikdagi ta'siriga tayanadi. Ayniqsa takroriy mashq, ijobiy emotsional fon va faol kommunikativ ishtirok o'zaro uyg'unlashganda natija kuchliroq bo'ladi. Shu sababli onlayn platformalarni tanlashda faqat texnik qulaylik emas, balki ularning o'quvchiga qanchalik xavfsiz, interaktiv va ruhiy jihatdan qo'llab quvvatlovchi muhit yaratishi ham inobatga olinishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, onlayn til o'rganish platformalari ESL o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchini oshirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu platformalar o'quvchilarga ingliz tilida erkinroq gapirish, xatodan kamroq qo'rqish, muloqotga faolroq kirishish va javob berishda ko'proq tashabbus ko'rsatish imkonini yaratadi. Ayniqsa takroriy mashq qilish, individual sur'atda ishlash, darhol fikr bildirish olish va past bosimli o'quv muhitining mavjudligi speaking confidence shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, onlayn platformalarning ta'siri faqat til ko'nikmasini rivojlantirish bilangina cheklanmaydi. Ular o'quvchilarning psixologik holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, speaking anxiety ni kamaytiradi, ichki xotirjamlikni kuchaytiradi va muloqotga tayyorgarlik hissini mustahkamlaydi. Natijada o'quvchi o'z nutqiy imkoniyatlarini erkinroq namoyon eta boshlaydi. Bu esa speaking confidence ning affektiv, kommunikativ va texnologik omillar uyg'unligi asosida shakllanishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot onlayn platformalardan foydalanish samarasi ularning qanday tashkil etilganiga ham bog'liqligini ko'rsatdi. Agar platformalarda interaktiv dialoglar, ovozli topshiriqlar, sun'iy intellekt asosidagi suhbat mashqlari va real muloqotga yaqin vaziyatli topshiriqlar mavjud bo'lsa, o'quvchilarning og'zaki nutq ishonchi yanada tezroq rivojlanadi. Demak, onlayn platformalarni ESL ta'limida faqat qo'shimcha resurs sifatida emas, balki o'quvchilarning nutqiy faolligi va o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantiruvchi strategik ta'lim vositasi sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, onlayn til o'rganish platformalari ESL o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchini oshirish, ularda faol kommunikativ ishtirokni shakllantirish va zamonaviy raqamli ta'lim muhitida samarali til o'rganishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois kelgusida bunday platformalarni ta'lim jarayoniga yanada kengroq integratsiya qilish, ularning speaking confidence ga ta'sirini turli yosh va til darajasidagi o'quvchilar kesimida chuqurroq o'rganish dolzarb ilmiy yo'nalish bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lin H. Computer-mediated communication (CMC) in L2 oral proficiency development: A meta-analysis // ReCALL. - 2015. - Vol. 27, № 3 (September). - P. 261–287. - DOI: 10.1017/S095834401400041X. - URL: <https://www.cambridge.org/core/journals/recall/article/abs/computermediated-communication-cmc-in-l2-oral-proficiency-development-a-metaanalysis/638CE918F42429104E2E582D5AD771B0>
2. Leeming P., Vitta J. P., Hiver P., Hicks D., McLean S., Nicklin C. Willingness to Communicate, Speaking Self-Efficacy, and Perceived Communicative Competence as Predictors of Second Language Spoken Task Production // Language Learning. - 2024. - Vol. 74, № 4. - P. 917-949. - DOI: 10.1111/lang.12640. - URL: <https://waseda.elsevierpure.com/en/publications/willingness-to-communicate-speaking-self-efficacy-and-perceived-c/>
3. Bárkányi Z., Brash B. Foreign language speaking anxiety, mental health, and online learning: Overcoming barriers in the digital age // Language Teaching. - 2025. - First View. - P. 1-19. - DOI: 10.1017/S0261444825101080. - URL: <https://www.cambridge.org/core/journals/language-teaching/article/foreign-language-speaking-anxiety-mental-health-and-online-learning-overcoming-barriers-in-the-digital-age/15FF9023B597B206F415F0503A4FF2BF>
4. Han R., Alibakhshi G., Lu L., Labbafi A. Digital communication activities and EFL learners' willingness to communicate and engagement: Exploring the intermediate language learners' perceptions // Heliyon. 2024. Vol. 10, Issue 3. e25213. doi:10.1016/j.heliyon.2024.e25213.
5. Fathi J., Rahimi M., Derakhshan A. Improving EFL learners' speaking skills and willingness to communicate via artificial intelligence mediated interactions // System. 2024. Vol. 121. 103254. doi:10.1016/j.system.2024.103254.
6. Grab M. Ö., Ozturk I. Integrated AI chatbot practice: A pathway to improved ESL speaking skills // Heliyon. 2025. Vol. 11. Article e43227.
7. Yan W., Lowell V. L., Yang L. Developing English language learners' speaking skills through applying a situated learning approach in VR enhanced learning experiences // Virtual Reality. 2024. Vol. 28. Article 167.
8. Bashori M., van Hout R., Strik H., Cucchiarini C. Effects of ASR based websites on EFL learners' vocabulary, speaking anxiety, and language enjoyment // System. 2021. Vol. 99. Article 102496. DOI 10.1016/j.system.2021.102496.
9. Ghasemi A., Azari Noughabi M. Investigating the mediating role of Foreign Language Peace of Mind and learning burnout in the relationship between Informal Digital Learning of English and willingness to communicate // Computer Assisted Language Learning. 2024. Advance online publication. DOI 10.1080/09588221.2024.2424321.
10. Lee J. S., Sylvén L. K. The role of Informal Digital Learning of English in Korean and Swedish EFL learners' communication behaviour // British Journal of Educational Technology. 2021. Vol. 52, No. 3. P. 1279-1296. DOI 10.1111/bjet.13082.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.